

JINOYAT ISHLARI BO'YICHA BIRINCHI INSTANTSIYA SUDLARIDA ADVOKAT ISHTIROKI VA AHAMIYATI

Sh.A. Abdijemilova

Toshkent davlat yuridik universiteti magistratura 1-kurs talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15102541>

Annotatsiya. Ushbu maqola birinchi instansiya jinoyat sudlarida advokat ishtiroki institutining protsessual jihatlarini har tomonlama ilmiy tahlil qilingan, advokat ishtiroki tizimini takomillashtirish, birinchi instansiyasi sudi tomonidan ko'riladigan ishlarda himoyachining ishtirok etishi institutini rivojlantirish, shuningdek, jinoyat ishlarida himoyachining holati, roli va huquqiy tartibga solinishini o'rganish, himoyachining jinoiy jarayonda samarali ishlash mexanizmlarini yaratish bilan bog'liq tavsiyalar bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalari va ko'nikmalarni o'z qonunchiligimizga implementatsiya qilish bo'yicha taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: advokat, protest, shikoyat, himoyachi, vakolatlar, murojaat, protsessual rol, birinchi instansiya, konstitutsiya.

PARTICIPATION AND IMPORTANCE OF LAWYERS IN CRIMINAL COURTS OF FIRST INSTANCE

Abstract. This article provides a comprehensive scientific analysis of the procedural aspects of the institution of lawyer participation in criminal courts of first instance, develops proposals and recommendations on improving the system of lawyer participation, developing the institution of the participation of the defense attorney in cases heard by the court of first instance, as well as studying the status, role and legal regulation of the defense attorney in criminal cases, and implementing advanced foreign experiences and skills into our legislation.

Keywords: lawyer, protest, complaint, defense attorney, powers, appeal, procedural role, first instance, constitution.

УЧАСТИЕ И ЗНАЧЕНИЕ АДВОКАТОВ В УГОЛОВНЫХ СУДАХ ПЕРВОЙ ИНСТАНЦИИ

Аннотация. В статье дается комплексный научный анализ процессуальных аспектов института участия адвоката в уголовных судах первой инстанции, разрабатываются предложения и рекомендации по совершенствованию системы участия адвоката, развитию института участия защитника в делах, рассматриваемых судом первой инстанции, а также исследуются статус, роль и правовое регулирование деятельности защитника по уголовным делам, создание механизмов эффективной деятельности защитника в уголовном процессе, внедрение передового зарубежного опыта и навыков в отечественное законодательство.

Ключевые слова: адвокат, протест, жалоба, защитник, полномочия, апелляция, процессуальная роль, первая инстанция, конституция.

KIRISH

Jinoyat protsessida shaxs huquqlarini ta'minlashning mexanizmlari mazmunini shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan jinoyat-protsessual normalar va vositalar hamda shaxs huquqlari va erkinliklarini ta'minlashga ma'sul bo'lgan davlat organlari hamda alohida shaxslarning faoliyati tashkil qiladi. Jinoyat ishi yurituvchi bosqichlarida, xususan jinoyat ishini qo'zg'atishdan boshlab, uni tergov qilish, sudda ko'rishga tayinlash, ishni mazmunan sudda ko'rish va natijasi bo'yicha sud hujjatlarini (hukm, ajrim) qabul qilish, hukm (ajrim, qaror) ustidan shikoyat kiritish hamda ularning ijro etilishini ta'minlovchi subyektlar shaxs huquqlarini ta'minlash mexanizmi tizimida muhim ahamiyatga ega bo'lgan institutsional asoslar hisoblanadi.

Ta'kidlash lozimki, himoyalani shaxs huquqlarini ta'minlash jinoyat-protsessual qonunchilikning asosiy tamoyillaridan biri sifatida belgilanganligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Zotan, huquqning ma'muriy, fuqarolik, xo'jalik va boshqa sohalariga qaraganda jinoyat protsessida insonning huquq va qonuniy manfaatlariga ko'proq ta'sir o'tkaziladi. Chunki, jinoyat sudlov ishlarini yuritish orqali fuqarolarning shaxsiy huquq va erkinliklarini cheklash ehtimoli yuqoridir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD

Maqolada olib borilgan tadqiqotning mazmuni jinoyat sudlarining birinchi instansiyasida himoyachi ishtiroki hamda ushbu sohadagi mavjud muammolar, vakolatlarini kengaytirishning ayrim masalalarini aniqlashdan iborat. Maqolaning metodologik asosi jinoyat sudlarida himoyachi ishtiroki, va mazkur jarayonda himoyachi ishtirokini takomillashtirish sohasida obyektiv voqelikni bilishning umumiy falsafiy va xususiy huquqiy usullari hisoblanadi.

Maqolada umumiy ilmiy usullar (tizimli, tuzilmaviy-funksional, mantiqiydeduksiya va induksiya), maxsus usullar (Statistik, qiyosiy-huquqiy) va xususiy ilmiy usullardan (rasmiy) foydalanilgan.

N. S. Chuvashov[1], A. D. Boykov[2], M.O. Баев[3], V. Y .Melnikov[4] kabi olimlar shuningdek, Bazarova D.[5], To'laganova G.[6], Inog'omjonova Z.[7] shaxslarning jinoyat protsesida himoyalani shaxs huquqlarini ta'minlash, amalga oshirish va himoya qilish mexanizmining xususiyatlari bo'yicha tadqiqot ishlarini amalga oshirganlar.

MUHOKAMA HAMDA NATIJALAR

Mamlakatimiz hayotining barcha sohalarida amalga oshirilayotgan demokratik islohotlarning bosh maqsadi – inson, uning huquq va erkinliklarini himoya qilish kafolatlarini yaratishga qaratilgan.

Advokatura institutining yanada isloh qilinishi fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishga hamda inson huquqlari va erkinliklarining samarali himoya qilinishini har tomonlama ta'minlashga qaratilgan sud-huquq tizimi sohasidagi islohotlarning bugungi kundagi eng muhim vazifasi sifatida belgilandi.

Harakatlar strategiyasining mantiqiy davomi sifatida 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi qabul qilindi. Taraqqiyot strategiyasining 19-maqsadi sifatida advokatura institutining inson huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishdagi salohiyatini tubdan oshirish, shuningdek, aholi va tadbirkorlik subyektlarining malakali huquqiy xizmatlarga bo'lgan talabini to'liq qondirish belgilangan[8].

Huquqshunos olimlar – A. Vorobyev, A. Polyakov, Y. Tixonravovlarning fikricha, “advokaturaga bo'lgan zarurat aslida advokatning o'ziga xos o'rni bo'lgan odil sudlov tizimidagi ishtirokini joriy etish yo'li bilan davlat tomonidan belgilanadi” [9].

Eng avvalo, “inson huquqlariga sodiqlik”, “demokratiya va ijtimoiy adolatga sadoqat”, “Respublika fuqarolarining munosib hayot kechirishlarini ta'minlash”, “insonparvar demokratik huquqiy davlat barpo etish” kabi g'oyalar oliy maqsad sifatida Asosiy Qonunimizning Muqaddimasida konstitutsiya darajasida mustahkamlandi hamda uning butun mazmunida, shu orqali barcha qonun normalari ruhiyatida aks ettirildi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 22-moddasida O'zbekiston Respublikasi o'z hududida ham, uning tashqarisida ham o'z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko'rsatishni kafolatlashi qayd etilgan. 2023-yil 30-aprel kuni referendum asosida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasida advokaturaning mavqeyi va nufuzini tubdan o'zgartiruvchi normalar belgilandi. Konstitutsiyaga “Advokatura” nomli XXIV alohida bob kiritildi. Ushbu bobda advokaturaning mazmuni, faoliyat prinsiplari bilan birga, advokatning kasbiy kafolatlari qat'iy mustahkamlandi. Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida “advokat” so'zi 4 ta, “advokatura” so'zi esa 3 ta, “yuridik yordam” jumlasini 3 ta huquqiy normada o'z aksini topgan. Xususan, 29-moddada advokatning jinoyat protsessidagi ishtirokiga oid norma keltirilgan bo'lib, uning yordamidan har kim foydalanish huquqiga egaligi mustahkamlangan.

“Advokatura to'g'risida”gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 122-moddasida advokatlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifoda etish hamda himoya qilish, shu jumladan, davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari bilan munosabatlarda, shuningdek, sud ularning huquqlari hamda qonuniy manfaatlarini samarali himoya etish Advokatlar palatasining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev 2022-yil 20-iyunda Konstitutsiyaviy komissiya a'zolari bilan uchrashuvda sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar bilan birga “...

kuchli advokatura tizimini yaratish asosiy vazifamizdir” (10), deb ta’kidlagan edi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyaning 142-moddasida advokat o’z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda uning faoliyatiga aralashishga yo’l qo’yilmasligi belgilab qo’yildi. Ya’ni o’z kasbiy vazifalarini amalga oshirayotganda advokatning faoliyatiga aralashishga yo’l qo’yilmasligi konstitutsiya darajasida mustahkamlandi. Bu esa jismoniy va yuridik shaxslarga ko’rsatiladigan yuridik yordam sifati va samaradorligini to’liq ta’minlaydi. Endilikda davlat advokatga o’z himoyasidagi shaxs bilan to’sqinliksiz va xoli uchrashishi, maslahatlar berishi uchun shart-sharoitlarni ta’minlashi nazarda tutildi. Bu esa advokatlarga o’z himoyasidagi shaxs bilan u ushlangan paytdan boshlab miqdori va muddati cheklanmagan xoli uchrashuvlar o’tkazishiga imkon beradi. Advokatlarning o’z himoyasidagi shaxslar bilan audio va videokuzatuv qurilmalari bo’lmagan maxsus xonalarda hamda begona shaxslarning ishtirokisiz o’z vaqtida va hech qanday to’siqlarsiz uchrashishi ta’minlanadi.

V.Y.Melnikov “jinoyat protsessi orqali shaxs huquqlarini ta’minlash, amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi” tushunchasiga butun jinoyat protsessining maqsadiga muvofiq muayyan ketma-ketlikda ishlashini ta’minlaydigan protsessual- huquqiy elementlar, vositalar va usullar majmui sifatida ta’rif bergan.

Shu bilan birga, ushbu olimning fikricha “shaxs huquqlarini ta’minlash, amalga oshirish va himoya qilish mexanizmi” kategoriyasining o’zi quyidagi elementlardan iborat: shaxs huquq va erkinliklarini mustahkamlovchi huquqiy normalar; ushbu huquq va erkinliklarning paydo bo’lishi va tugatilishining huquqiy faktlari; shaxs huquqlarining kafolatlarini ta’minlash bilan shug’ullanadigan jinoyat protsessi ishtirokchilarining faoliyati; shaxs huquq va erkinliklarni ta’minlash, amalga oshirish va himoya qilish uchun mo’ljallangan maxsus huquqiy tartiblar; huquqiy javobgarlik instituti[11].

Firkni davom ettirgan xolda shuni ta’kidlash lozimki, advokat jinoyat ishlarini sudda ko’rish jarayonining shunday bir ishtirokchisi hisoblanadiki, uning ishtirokisiz sud, ya’ni davlat hokimiyati to’laqonli faoliyat ko’rsata olmaydi. Bu holat advokatura institutining alohida maqomini isbotlaydigan qo’shimcha dalildir.

O’zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 24-moddasida gumon qilinuvchi, ayblanuvchi va sudlanuvchi himoyalani sh huquqiga egaligi belgilangan.

Himoyalani sh huquqi surishtiruvchi, tergovchi, prokuror, sud zimmasidagi gumon qilinuvchiga, ayblanuvchiga va sudlanuvchiga unga berilgan huquqlarni tushuntirib berish hamda u o’ziga qo’yilgan ayblovdan himoyalani sh uchun qonunda nazarda tutilgan barcha vosita va usullardan foydalanishda haqiqiy imkoniyatga ega bo’lishiga qaratilgan chora-tadbirlar ko’rish majburiyati bilan ta’minlanadi. Sudda ishning hal etilishida advokatning ahamiyati kattadir.

Sudda advokatning ishtirokini uning sud muhokamasining tayyorlov qismida ishtirok etishdan boshlanadi. Sud muhokamasining tayyorlov qismi jinoyat protsessida muhim o'rin egallaydi, chunki uning to'g'ri tashkil etilishi butun sud jarayonining olib borilishiga o'z ta'sirini o'tkazadi. Sud muhokamasi ochilishida himoyachi shaxsan sud tarkibining to'liqligini, sud zaliga chaqirilishi lozim bo'lgan shaxslarning kelgan-kelmaganligini aniqlashi lozim, chunki bularsiz sud muhokamasini boshlashning imkoni yo'q. Himoyachi ayniqsa guvohlar va ekspertlarni kelgan-kelmaganligini shaxsan aniqlashi shart, chunki ularning ko'rsatuvlari jinoyat ishi bo'yicha muhim ahamiyatga ega. Agar tekshirish davomida ulardan birortasi kelmaganligi aniqlansa, himoyachi ishini davom ettirish yoki ularni keltirishga qadar ishini to'xtatib turish yuzasidan sudga o'z fikrini bildiradi.

Himoyachi guvohlarning ko'rsatuvlari o'ta muhim ekanligini unutmasligi va shuning uchun guvohlar sud zalidan chiqarilishi va ko'rsatuv bergan guvohlar ko'rsatuv bermagan guvohlar bilan so'zlashmasligi to'g'risidagi qonun talablarini nazorat qilishi kerak.

Birinchi instansiya sudida advokat tomonidan rad etish haqidagi arz taqdim etish ham muhim va ushbu arz rad qilish asoslantirilish bo'lishi kerak. Mazkur advokatning harakatlari orqali sud tegishli xodimlar tomonidan manfaatlar to'qnashuvisiz va adolatli o'tkazilishini ta'minlaydi.

Himoyachi jinoyat protsessiga kirishar ekan, himoyasi ostidagi shaxs bilan muloqotda bo'lib, himoya taktikasini tanlagan holda protsess ishtirokchisi sifatida himoya funksiyasini to'la va mustaqil amalga oshiradi. To'g'ri himoya taktikasini tanlash va qanday yangi dalillar zarurligini aniqlash uchun ish qat'iylik va izchillik bilan o'rganilishi kerak. Ishni o'rganishda tahliliy baholash quyidagi holatlarga yo'naltiriladi:

1. Ishning umumiy tarkibidagi ayblov mohiyatiga ega bo'lgan har bir faktning ayblanuvchining shaxsi va taxminiy himoya taktikasi bilan munosabatdagi ahamiyatini aniqlash.
2. Ikkinchi darajali faktlardan asosiylarini ajratish.
3. Faktlarni kamroq yoki ko'proq aniqlaganlarga, shubhalilarga ajratish, shuningdek, har bit fakt manbayining ishonchliligi va to'g'riligini tanqidiy tekshirish.

Himoyachi iloji boricha ish materiallari bilan ayblanuvchi ishtirokida tanishishga harakat qilishi zarur. Ayniqsa voyaga yetmagan yoki biron jismoniy yoki ruhiy kamchiligi bor ayblanuvchilarning ishi bo'yicha bu holat juda muhim ahamiyatga ega. Tanishish uchun barcha ish materiallari to'laligicha ayblanuvchi va himoyachiga taqdim etilishi zarur.

Qonun buni kafolatlash maqsadida ish materiallari tikilgan va nomerlangan holda taqdim etilishi zarurligini belgilagan.

Jinoyat protsessining eng muhim va asosiy bosqichi – sud muhokamasi bosqichi hisoblanadi.

Ushbu bosqichda jinoyat ishi yuzasidan to'plangan barcha dalillar oshkora, og'zaki va bevosita tekshiriladi hamda uzil-kesil baholanadi [12].

Taraflar muzokarasi - sud muhokamasi bosqichining mustaqil qismi bo'lib, unda taraflar o'zlarining nutqlari, replikalari orqali sud tergovidagi tekshiruv va tadqiqot predmeti bo'lgan barcha dalillarni baholaydilar, tekshiruvlar, undan tashqari sodir qilingan qilmishning ijtimoiy-siyosiy va huquqiy jihatlarini e'tirof etishadi, sudlanuvchi shaxsni tavsiflash, e'lon qilingan ayblovga o'z fikrini bildirish, u yoki bu jazoni qo'llash, jazodan ozod qilish yoki butunlay oqlash to'g'risida fikrlar bildirishadi [13]. Taraflar muzokaralard faqat jinoyat ishida mavjud bo'lgan va sud muhokamasida tekshirilgan, o'rganilgan dalillarga asoslanishlari, ularga baho berishlari hamda sudning hukmda qaysi dalillarga asoslanishi lozimligi haqida fikr bildirishlari lozim.

Muzokaralar tugaganidan keyin taraflar o'z mulohaza va e'tirozlari bilan so'zga chiqish huquqiga egadirlar. Biroq so'nggi so'z bilan chiqish huquqi hamisha sudlanuvchi va uning himoyachisiga tegishli bo'ladi. Taraflar muzokaralaridagi eng muhim jihat - davlat ayblovchisi va himoyachining chiqishlaridir. Chunki protsessda qarama-qarshi manfaatni ifoda etuvchi va turli xil funksiyalarni amalga oshiruvchi bu ikki subyekt protsessdagi asosiy masala yuzasidan tortishuv olib boradilar. Aynan ushbu ikkala taraf - davlat ayblovchisi va himoyachi taraflar muzokarasi jarayonida sudda ichki ishonchning shakllanishiga ko'proq ta'sir etish imkoniga ega hisoblanadi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan har qanday islohotlarning, xususan himoyalani huquqini ta'minlash institutini yanada isloh etish yuzasidan olib borilayotgan islohotlarning markaziy bo'g'inini inson, uning huquq va manfaatlari tashkil etayotganlini ta'kidlash o'rindir.

Zero, islohot – islohot uchun emas, islohot, avvalo, inson, uning manfaatlari uchun xizmat qilmog'i lozim.

Advokatning kasbiy burchi unga ish bo'yicha barcha dalillarni obyektiv, har tomonlama va sidqidildan tahlil qilish va baho berish, faktlarni ataylab buzib ko'rsatmaslik, sud va tergovni chalg'itishga urinmaslik, tekshirilayotgan hodisalarga qonuniylik va axloq pozitsiyasidan turib baho berish majburiyatini yuklaydi.

Himoyachi haqiqiy, o'ziga ma'lum bo'lgan dalillardan foydalanishi yoki unga ma'lum bo'lgan faktlarga zid keluvchi ishdagi ma'lumotlarni qo'llashi mumkin emas.

Sudning birinchi instansiyasida advokatning o'z himoyasi ostidagi shaxsning ishonchli darajada himoya qila olishi, o'z vazifasini sidqidildan bajarish, o'zining oratorlik qobiliyati asosida maqbul himoya nutqini namoyish etishi sud qarorinig adolatli ravishda himoyasi ostidagi shaxs foydasiga hal etish yo'lida eng muhim jihatlar hisoblanadi.

REFERENCES

1. Н.С. Чувашовой «Функция адвоката-защитника в апелляционной и кассационной судебных инстанциях» (2003 г.) 22.
2. Бойков А.Д. «Защита прав потерпевшего в уголовном процессе». М., 1993. С. 44
3. Баев М.О. Баев О.Я. Участие защитника в производстве следственных действий (тактический аспект) / Баев М.О. Баев О.Я. // Уголовно-правовые проблемы борьбы с преступностью: сб. науч. тр. -Калининград: Изд-во Калининград, гос. ун-та., 1995. С. 58 - 72.
4. В.И. Новосельцев, В.М. Мельников Новосельцев В.И. Конфликтология: учеб. пособие /. Воронеж: Рос. академия правосудия, 2004.-290с.
5. Базарова Д.Б. Адвокат как участник в досудебных стадиях уголовного процесса. Дисс. ... канд. юрид. наук. –Т., ТГЮИ. 2011. -С. 20.
6. Тўлаганова Г.З. Инсон ҳуқуқлари умумжаҳон декларацияси ва тортишув принципи. Ўқув қўлланма. – Т. ТДЮИ, 2009., -Б. 6-7, 60, 78.
7. Inog'omjonova Z.F., To'laganova G. Z. Jinoyat protsessi ishtirokchilari. O'quv qo'llanma. -T.: TDYUU. 2006.-B. 45. (Inogomjonova Z.F., Tulaganova G. Z. Participants in criminal proceedings. Study guide. -T .: TDYuU. 2006.-r. 45.)
8. <https://lex.uz/docs/5841063>
9. Воробьев А.В., Поляков А.А., Тихонравов Ю.В. Теория адвокатура - М.: Грантъ, 2002 -С. 176-177.
10. Mirziyoyev Sh.M. Konstitutsiyaviy islohotlarimizning bosh maqsadi – inson qadri, xalq manfaatini amalda ta'minlashdir. // Xalq so'zi, 2022-yil 21-iyun.
11. Мельников В.Ю. Характеристика механизма обеспечения, реализации и защиты прав личности // <https://sworld.com.ua/konfer27/91.pdf> (Melnikov V.Yu. Characteristics of the mechanism for ensuring, implementation and protection of individual rights// <https://sworld.com.ua/konfer27/91.pdf>)
12. To'laganova G.Z., Kamalova.D.G., Tadjibayeva A.Y. Jinoyat ishlarida advokatning ishtiroki. O'quv qo'llanma. -T.:2021. 66-6.
13. To'laganova G.Z. Jinoyat protsessida himoyachining ishtiroki o'quv qo'llanma// - T.: TDYU, 2005. 100-6.